XALQARO VALYUTA JAMG‘ARMASI VAKILLARI BILAN UCHRASHUV BO‘LIB O‘TDI

Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Ahadbek Haydarov Xalqaro valyuta jamg‘armasining (XVJ) katta iqtisodchisi Vinsent de Pol Kukpayzan boshchiligidagi delegatsiya vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi.

Davomi → 2-betda



Международное сотрудничество

ОЧЕРЕДНОЕ ЗАСЕДАНИЕ КОМИССИИ ПО ЭКОНОМИЧЕСКИМ ВОПРОСАМ ГОСУДАРСТВ – УЧАСТНИКОВ СНГ

Продолжение → 10 стр.

ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ГАЗЕТА / IQTISODIY GAZETA

BIZNES DAILY BIRJA


GAZETA O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT AKTIVLARINI BOSHQARISH AGENTLIGI KO‘MAGI BILAN CHOP ETILADI

#31 (3225) 17.04.2025

WWW.BUSINESSDAILY.UZ

Andijon viloyati iqtisodiyotini rivojlantirish





Prezident Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatida 2025 yilda erishilishi rejalashtirilgan asosiy maqsadlarga oid taqdimot bilan tanishdi.

Joriy yilning birinchi choragida investitsiya loyihalari samarasida hamda tijorat banklari ishtirokida 77 ming nafar fuqaro ish bilan ta’minlangan.

Umuman, 2025 yilda 5 milliard 700 million dollarlik 166 ta investitsiya loyihasi amalga oshiriladi. Bu orqali 31 mingta ish o‘rni ochiladi. 31 turdagi yangi mahsulot olish yo‘lga qo‘yilib, 1,5 milliard dollarlik eksport imkoniyati yaratiladi. Korxonalarni barqaror energiya bilan ta’minlash uchun 65 megavatt yangi quvvatlar barpo etiladi.

Bu ishlarni davom ettirib, yil yakuniga qadar umumiy 305 ming nafar aholini daromadli ish bilan ta’minlash maqsad qilingan.

Taqdimotda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoatni rivojlantirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. 2025 yilda iqtisodiy o‘sish sur’ati 5,5 foizga yetishi kutilmoqda.

Prezident mutasaddilarga loyihalarni o‘z vaqtida bajarib, aholini daromadli ish bilan ta’minlash, ishsizlarni kasbga yo‘naltirish bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Xalqaro turizm markazining master-rejasi ko‘rib chiqildi

Prezident Shavkat Mirziyoyev “Sea Breeze Uzbekistan” xalqaro turizm markazining master-rejasi taqdimoti bilan tanishdi.

Mamlakatimizdagi qulay investitsiya muhiti tufayli barcha sohalarga ilg‘or g‘oyalar kirib kelmoqda, yangi majmualar barpo etilmoqda. Xususan, turizmda so‘nggi yillarda 2 mingdan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. O‘tgan yili xorijiy sayyohlar tashrifi ilk bor





10 milliondan oshdi. Birgina Toshkent viloyatining Bo‘stonliq hududida Amirsoy va “Ugam River” kabi kurortlar, “Beldirsoy-Chimyon-Nanay” turizm maskanlari tashkil etildi.

Bunday rivojlanish sur’ati chet ellik investorlarni ham o‘ziga tortmoqda. Jumladan, Chorvoq suv ombori bo‘yida “Sea Breeze Uzbekistan” xalqaro turizm markazi qurilishi haqida avval xabar berilgan edi. Bu galgi taqdimotda ushbu yirik loyihaning bir nechta xorijiy kompaniyalar ishtirokida ishlab chiqilgan master-rejasi ko‘rib chiqildi.

Qayd etilganidek, turizm markazini 10 ta kichik hududga bo‘lib qurish ko‘zda tutilmoqda. Ularning har biri piyoda borish mumkin bo‘lgan ko‘ngilochar maskan va xizmatlarni qamrab oladi. Ikki qirg‘oq o‘rtasida ko‘prik qurilib, keluvchilarga qulaylik oshiriladi. Suv bo‘yida xiyobon, plyaj va dam olish joylari bo‘lsa, qiyaliklarda mehmonxonalar, kottejlar, uylar, restoran va tomoshagohlar bo‘ladi. Shuningdek, madaniyat, ta’lim, tibbiyot, sport maskanlari barpo etiladi. Ya’ni bu yerda faqat sayohat emas, balki yil davomida yashash imkoniyati ham yaratiladi.

Davlatimiz rahbari bu loyiha barcha tashrif buyuruvchilarga qulay bo‘lishi lozimligini ta’kidlab, majmuani zarur infratuzilma bilan ta’minlash bo‘yicha ko‘rsatmalar berdi.

Жамият

Turkiy davlatlar tashkiloti: tahlil markazlari o‘rtasida hamkorlik shartnomalari imzolandi

→ 8-betda



Международное сотрудничество

Узбекистан запускает масштабную реформу управления государственными финансами

→ 10 стр.



ОТДЕЛ РЕКЛАМЫ

REKLAMA VA E’LONLAR BO’LIMI

+998 (99) 353-55-54

telegram BIZNES DAILY BIRJA

Xalqaro valyuta jamg‘armasi vakillari bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi

Iqtisodiyot va moliya vaziri o‘rinbosari Ahadbek Haydarov Xalqaro valyuta jamg‘armasining (XVJ) katta iqtisodchisi Vinsent de Pol Kukpayzan boshchiligidagi delegatsiya vakillari bilan uchrashuv o‘tkazdi.





Unda XVJning bojxona masalalari bo‘yicha katta iqtisodchisi Tadatsugu Matsudayra, soliq boshqaruvi masalalari bo‘yicha maslahatchisi Georgiy Kandelaki, Iqtisodiyot va moliya vazirligining soliq-bojxona siyosati va daromadlar prognozi departamenti direktori Shohrux Safarov va boshqa mas’ul vakillar ishtirok etishdi.

Muloqot davomida tomonlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, jumladan, eksport-import jarayonlarini soddalashtirish, ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish, bojxona organlari faoliyatini yanada takomillashtirish hamda yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish masalalarini muhokama qilishdi.



Shuningdek, suhbat chog‘ida bojxona ma’murchiligini takomillashtirishda jahondagi ilg‘or va muvaffaqiyatli tajribalar, jumladan, sun’iy intellekt va katta hajmdagi ma’lumotlardan foydalanishni keng joriy qilish, ushbu sohada o‘zaro hamkorlik istiqbollari yuzasidan fikr almashindi.

Muzokaralar yakunida manfaatli sheriklik aloqalarini rivojlantirish va yanada kengaytirish, xususan bojxona tizimini kompleks diagnostikadan o‘tkazishda tizimli faoliyat olib borishga kelishib olindi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bilan ochiq muloqot



Bojxona qo‘mitasi raisining bir guruh tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari bilan ochiq muloqoti bo‘lib o‘tdi.

Unda tadbirkorlarning bojxona va ishlab chiqarish sohasidagi muammolarini imkon qadar amalda bartaraf etish hamda ular tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olishning barcha chorasini ko‘rishga asosiy e’tibor qaratildi. Zero, tadbirkorlik faoliyatidagi muammolarni hal etish bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonlarini takomillashtirib borishga ham xizmat qilib, muntazam ravishda xorijiy tajribalarni o‘rganishga, yangi axborot tizimlari ustida ishlashga undamoqda. Natijada so‘nggi uch yilda bojxona organlarida 26 ta yangi axborot tizimi, 15 ta interaktiv xizmat, 10 ta mobil ilova amaliyotga kiritildi. Mazkur tizimlar 41 ta aviakompaniya, 33 ta vazirlik va idora hamda o‘nlab xorijiy bojxona xizmatlari bilan o‘zaro integratsiya qilindi. Sohani raqamlashtirish hisobiga hozirda eksport hamda import deklaratsiyalarining 81-82 foizi soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirilmoqda. Bunda inson omilisiz rasmiylashtirish hajmi eksportda 60 foizni, importda 40 foizni tashkil qilmoqda. Bir qator bojxona tartibotlari ham soddalashishi evaziga, joriy yilning dastlabki choragida 3 mingga yaqin eksportyor va 10 mingdan ortiq importyorning bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi bilan bog‘liq ortiqcha sarf-xarajati va vaqti tejalishiga erishildi. Endilikda tadbirkorlarga xorijdan olib kelingan xom-ashyolarni qayta ishlash natijasida hosil bo‘lgan tovarlarni eksport qilmasdan ularni yanada chuqurroq qayta ishlash maqsadida bojxona to‘lovlarisiz ikkinchi mahalliy qayta ishlovchiga sotishlari mumkin.

Muloqotda halol va qonunga itoatkor tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash, ularga soddalashtirilgan bojxona tartibotlaridan foydalanish huquqini taqdim etishni nazarda tutuvchi vakolatli iqtisodiy operatorlar institutining afzalliklari haqida ham batafsil axborot berildi. Hozirda ushbu maqomga ega bo‘lgan 66 ta tadbirkorning 25 minga yaqin partiyadagi tovarlarining bojxona rasmiylashtiruvi ustuvor tartibda amalga oshirildi, 410 mlrd so‘mdan ortiq bojxona to‘lovlarini kechiktirib va bo‘lib to‘lashga ruxsat berildi. 76 mln dollarlik 2 mingga yaqin partiyadagi tovarlarini hech qanday bojxona to‘lovlari to‘lanishi ta’minlanmagan holda o‘z omborlariga tushirishga ruxsat berilishi natijasida, tadbirkorlarning 7 mlrd so‘mga yaqin mablag‘i tejab qolindi.

Tadbirkorlarni o‘ylantirib, qiynab kelayotgan yana bir masala - eksport tovarlari bo‘yicha QQSning o‘rnini qoplash uchun soliq organlariga taqdim etiladigan deklaratsiyalar bojxona organlari tomonidan qog‘oz shaklda tasdiqlanishi edi. Tadbirda ushbu masalani bartaraf etish bo‘yicha bojxona va soliq organlari axborot tizimlarining integratsiyasi yakunlanib, elektron axborot almashinuvi to‘liq yo‘lga qo‘yilgani, natijada hozirga qadar 4 mingdan ortiq eksportyorning 88 mingga yaqin partiyadagi tovarlariga oid ma’lumotlar soliq organlari tomonidan elektron shaklda qabul qilingani aytildi.

Muloqot chog‘ida Bojxona qo‘mitasi tomonidan shu yilning 10 martidan boshlab ishga tushirilgan “Eksport va import ma’lumotlarini olish” elektron interaktiv xizmati haqida ham so‘z yuritildi. Ushbu xizmat turi deklaratsiyalarga oid ma’lumotlarni, ularga ilova qilingan hujjatlarni inson omilisiz “onlayn” va “24/7” rejimida bir necha daqiqada olish imkoniyatini beradi. Shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan tadbirkorlarni biznes rejasini ishlab chiqishda zarur bo‘lgan axborot bilan ham ta’minlaydi.

Bundan tashqari, tadbirkorlar uchun nazarda tutilgan bir qator yengilliklar va qulayliklar haqida ham to‘xtalib o‘tildi. Jumladan, 1 iyuldan boshlab veterinariya va fitosanitariya sohasida tashqi savdo yuklariga tegishli har qanday hujjatlarga muhr va shtamp bosish hamda ularni yozma tarzda ro‘yxatga olish amaliyoti bekor qilinib, tovarlar eksportida xalqaro shartnomalarda qat’iy belgilangan holatlardan tashqari, barcha tartibotlarni elektron shaklda tasdiqlash belgilandi. Jahon savdo tashkilotining Savdo tartibotlarini soddalashtirish bitimi talablari asosida tovarlarga nisbatan imtiyozlarni qo‘llash bo‘yicha bojxona organlarining dastlabki qarorlarini berish tartibi ham 1 iyuldan joriy etilmoqda. Shuningdek, 2025 yil 1 sentyabrdan boshlab tadbirkorlarga bojxona to‘lovlari va bojxona rasmiylashtiruvi uchun boshqa turdagi to‘lovlarni respublikaning istalgan hududidan amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda, buning uchun yagona g‘azna hisobvarag‘i ochilishi nazarda tutilgan. 1 dekabrdan boshlab esa bojxona hududida yoki hududidan tashqarida qayta ishlash rejimlarida deklaratsiyalarni soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirish imkonini beruvchi “Tolling operatsiyalari” moduli amaliyotga joriy etilmoqda. Yana bir yangilik – endilikda bevosita o‘z ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llaniladigan asbob-uskunalarning ehtiyot va butlovchi qismlari, materiallarni majburiy muvofiqligini baholamasdan bevosita ishlab chiqaruvchilarning javobgarligi (kafolat xati) ostida muomalaga chiqarishga ruxsat berildi.

Tadbirda Bojxona qo‘mitasi huzurida Tadbirkorlarning maslahat kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish taklifi ilgari surildi. Ishtirokchilar tomonidan mazkur taklif qo‘llab-quvvatlanib, kengash tarkibi ham tasdiqlandi.

Ochiq muloqot doirasida 2024 yil yakuni bo‘yicha tovarlar tashqi savdosini amalga oshirish yo‘nalishida yuqori ko‘rsatkichlarga erishgan bir guruh tadbirkorlar bojxona organlarida ilk bor ta’sis etilgan “Eng yaxshi eksportyor”, “Eng yaxshi bojxona to‘lovlari to‘lovchisi”, “Qonunga itoatkor tadbirkor” kabi nominatsiyalar bilan taqdirlanishdi.

Tadbir yakunida barcha bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayonlarini o‘zida aks ettirgan “Bojxona rasmiylashtiruvi markazi” va yangi “Bojxona laboratoriyasi” bilan tanishuv bo‘lib o‘tdi.



Moliyaviy xizmatlardan foydalanish: yangi dastur taqdimoti



Markaziy bank va Jahon banki tomonidan aholi o‘rtasida raqamli to‘lovlarni qo‘llashni kengaytirish, Markaziy Osiyo mamlakatlarida kichik va o‘rta biznes subyektlarining kapitaldan foydalanishini yaxshilash bo‘yicha davlat siyosati choralari va xususiy kapitalni safarbar qilish strategiyalariga bag‘ishlangan anjuman tashkil etildi.

Maqsad bunday sa’y-harakatlar orqali mintaqada yangi va yanada barqaror ish o‘rinlarini yaratishga qaratilgan. Tadbirda Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi rahbariyati hamda xalqaro moliya institutlari vakillari, shuningdek, xususiy sektor yetakchilari, fintex kompaniyalari mas’ullari ishtirok etishdi. Unda so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda kredit resurslaridan foydalanish imkoniyatlari yaxshilanib borayotgani va moliyaviy innovatsiyalar, jumladan, muqobil kredit skoringi, raqamli kreditlash va ma’lumotlarga asoslanib xavflarni baholash, shuningdek, aholining, ayniqsa, ayol tadbirkorlarning kredit olish imkoniyatlarini kengaytirishga e’tibor qaratilayotgani yuqori baholandi. Mintaqada raqamli to‘lov xizmatlarining kengayishi iqtisodiyotning yangi tarmoqlarida, jumladan, frilanserlik va elektron tijoratda ish o‘rinlarini yaratishda muhim turtki bo‘lishi, bu yoshlar, xotin-qizlar va qishloq aholisiga qo‘shimcha imkoniyatlar yaratishi, ish topish uchun qulayliklarni hamda iqtisodiy faollik darajasini yaxshilashi ta’kidlandi.

Tadbir davomida Jahon banki vakillari tomonidan “Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiy o‘sish, daromadlar va bandlikni oshirishga ko‘maklashish uchun moliyaviy xizmatlardan foydalanish” (ECA FIN-GROW) nomli yangi dastur taqdimoti o‘tkazildi. 2026 yilda ishga tushirilishi rejalashtirilgan mazkur dastur ishtirokchi davlatlarda jismoniy shaxslar, kichik va o‘rta biznes subyektlari uchun kapital va raqamli to‘lovlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga, ularning kredit resurslaridan foydalanishini oshirishga hamda yangi barqaror ish o‘rinlarini yaratishga xizmat qiladi.



Zamira Tojiyeva.

Bank kartalariga asoslangan chakana to‘lovlar: joriy holat va istiqbollar

Markaziy bank tomonidan tashkillashtirilgan navbatdagi media muloqot “O‘zbekiston hududida bank kartalariga asoslangan chakana to‘lovlarning rivojlanishi va istiqbollari” mavzusiga bag‘ishlandi.

Unda bank kartalari orqali amalga oshirilayotgan to‘lovlar, innovatsion to‘lov yechimlari va milliy to‘lov infratuzilmasini yanada takomillashtirish yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Taqdim etilgan ma’lumotlarga ko‘ra, 2024 yil davomida banklararo to‘lov tizimi orqali bajarilgan tranzaksiyalar hajmi 7 279 trln so‘mni tashkil etgan va bu oldingi yilga nisbatan 1,3 barobar ko‘pdir. Har kuni o‘rtacha 29,2 trln so‘mlik to‘lovlar qayd etilgan. Hisob-kitob kliring tizimida esa 100,3 trln so‘mlik to‘lov amalga oshirilib, to‘lovlar soni 123 mln. dan ortgan. Tezkor to‘lovlar tizimi orqali jismoniy va yuridik shaxslar 24/7 rejimida onlayn to‘lov qilish imkoniyatiga ega bo‘lgan. O‘tgan yili mazkur tizim orqali 47,6 mln tranzaksiya bajarilgan va to‘lovlar hajmi 917,9 trln so‘mga yetgan. Tezkor to‘lovlar ko‘lamining ortib borishi natijasida, hisobot yili yakunida xo‘jalik yurituvchi subyektlar jami to‘lov hujjatlarining 95 foizi bankka tashrif buyurmagan holda masofadan amalga oshirilgan. Bu esa respublikamizda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlarining masofadan hisobvaraqlarini boshqarish orqali tezkor to‘lov tizimi imkoniyatidan keng ko‘lamda foydalanish darajasi oshib borayotganligini ko‘rsatmoqda. Qiziqarlisi, barcha operatsiyalarning 38 foizi kechki





va tungi vaqtga to‘g‘ri kelganidir. Ushbu ko‘rsatkich 2023 yilda 28 foizni tashkil etgan.

Mutasaddilarning urg‘ulashicha, raqamli to‘lovlarning ommalashuvida QR-kod vositasidagi to‘lovlar alohida o‘rin tutadi. Shu bois muloqotsiz texnologiyalarni qo‘llagan holda naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirish xizmatlari, ya’ni QR-code orqali to‘lovlarni qabul qilish bo‘yicha QR-online tizimi ishga tushirilgan. Joriy yil 1 yanvar holatiga ko‘ra, “QR-online” axborot tizimi tomonidan tadbirkorlik subyektlariga taqdim qilingan QR-kodlar soni qariyb 108 ming donaga yetkazilib, unda amalga oshirilgan tranzaksiyalar hajmi 2023 yilga nisbatan qariyb 1,3 barobarga ortib 441,7 mlrd so‘mga yetgan. Bu tizimning fzalliklari shuki, bunda xarid uchun to‘lovni qabul qilishda to‘lov terminali talab etilmaydi, on-layn xarid qilishda tezkorlik va qulaylik ta’minlanadi. Ushbu yechim tadbirkorlarga POS-terminallarsiz to‘lov qabul qilish imkonini yaratadi va xarajatlarni kamaytiradi.

To‘lov infratuzilmasi rivoji ham sezilarli bo‘lmoqda. 2024 yil yakunida to‘lov terminallari soni 426 mingtaga yetgan. HUMO va UZCARD milliy to‘lov tizimlari nafaqat mamlakat ichida, balki transchegaraviy to‘lovlarda ham faol qo‘llanilmoqda. Shuningdek, ular VISA, Mastercard, UnionPay xalqaro to‘lov tizimlari bilan integratsiya qilingan.

Ta’kidlanganidek, mobil texnologiyalar ham tobora rivojlanmoqda, ya’ni “Humo Pay” va “Tap-to-Phone” kabi yechimlar orqali smartfonlar to‘lov vositasi sifatida ishlatilmoqda. Bu, ayniqsa, kichik biznes va o‘z-o‘zini band qilganlar uchun qulay yechim hisoblanadi. Mobil ilovalarga o‘rnatilgan “Humo Pay” dasturi (smartfonning NFC tizimi) orqali bank kartasidan foydalanmasdan chakana savdo va pullik xizmatlar ko‘rsatish punktlarida to‘lovlarni amalga oshirishdan iborat. Tap-to-phone tizimi (tijorat nomi “Onetouch”) POS-terminalga muqobil to‘lov vositasi sifatida smartfonning NFC tizimi orqali tadbirkorlik subyektlari (o‘z-o‘zini band qilgan shaxslar, yetkazib berish xizmatini ko‘rsatuvchi subyektlar) uchun to‘lovlarni qabul qilish imkoniyati hisoblanadi.

Shu bilan birga, kiberxavfsizlik va raqamli shaxsni aniqlash (e-KYC) texnologiyalari ham rivojlantirilmoqda. Bu bank xizmatlaridan foydalanishni yanada osonlashtirib, xavf-xatarlarni kamaytiradi. Ya’ni uning afzalliklari mijozlarga masofadan hisobvaraqlarni ochish, xizmat ko‘rsatish jarayonlarida xarajatlarni qisqartirish, noto‘g‘ri amalga oshirilgan identifikatsiya natijasida vujudga keladigan moliyaviy tavakkalchiliklarni kamaytirish, olis hududlarga kirib borish, mijozlar auditoriyasi ko‘lamini kengaytirish kabi imkoniyatlar bilan izohlanadi.

Media-muloqotda jurnalist va blogerlarni mavzuga oid qiziqtirgan barcha savollarga mutaxassislar tomonidan atroflicha javob berildi. Bu esa ishtirokchilarning ushbu yo‘nalishdagi bilimlarini yanada boyitishda yordam berdi.

BIZNES DAILY BIRJA

- **Биржа савдолари натижалари**
- **Биржа бюллетенлари**
- **Котировкалар, листинглар**
- **Танлов ва тендерлар**
- **Қимматли қоғозлар бозори иштирокчиларининг муҳим фактлари**
- **Банкротлик**

#31 (3225) 17.04.2025
WWW.BUSINESSDAILY.UZ

Қўқон туманлараро иқтисодий судининг 4-1502-2502/905-сонли иши юзасидан 2025 йил 8 апрелдаги ҳал қилув қарорига асосан Фарғона вилояти, Қўқон шаҳрида фаолият юритаётган **“AGIDEL EIZ” МЧЖ** (СТИР 305603645) банкрот деб эътироф этилган ва унга нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг тугатишга доир иш юритиш таомили жорий этилган. Тугатиш бошқарувчиси этиб З.Ф.Акбаров тайинланган.

Кредиторлар қарздорга бўлган талаблари билан эълон чиққан кундан эътиборан бир ой давомида қуйидаги манзилга мурожаат қилишлари мумкин: индекс: 150700, Фарғона вилояти, Қўқон шаҳри, Чўлпон кўчаси, 43-уй. Телефон: (90) 586-44-77.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ҳал қилув қарорига асосан қуйида кўрсатилган МЧЖ тўловга қобилиятсиз деб эътироф этилган.

Т/Р	Кузатув жорий этилган хўжалик субект номи	Стир	Иқтисодий суднинг ҳал килув карори ва санаси
1	“Araks Trade Business”МЧЖ	302497449	09.04.2024 й. №4-1001-2524/10284

“Araks Trade Business” МЧЖ тугатиш бошқарувчиси этиб 3-тоифали суд бошқарувчиси Аминов Хуршид Ўткирович тайинланган.

Тугатиш бошқарувчиси томонидан тугатиш жараёнида ушбу МЧЖга тегишли мавжуд мол-мулкларни қайта баҳолаш ишларини амалга ошириш учун тегишли ҳужжатларга эга бўлган баҳоловчи ташкилотлардан тижорат таклифларини 2025 йил 7 майга қадар бериш сўралади.

Мурожаат учун телефон: +99891-784-33-31

Самарқанд шаҳар иқтисодий судининг 2025 йил 7 апрелдаги 4-1404-2502/6120-сонли ажримига кўра, Самарқанд шаҳри, Х.Муин кўчасида рўйхатдан ўтган **“Baxri Mo` mina savdo” МЧЖга** (СТИР 304570483) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб Халилов Ахтам Абралович тайинланган.

Даъволар эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 19 май куни соат 15.00 да Жомбой шаҳри, Зебунисо кўчаси, 3-уйда бўлиб ўтиши белгиланди.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
2. Қарздор корхона кредиторлари талаблари реестрининг муҳокомаси.
3. Қарздор корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат қилиш.
4. Муваққат бошқарувчига ойлик иш ҳақи белгилаш.
5. Бошқа масалалар.

Ушбу йиғилишда кредиторлар ўзининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат, унинг вакили ваколатини белгиловчи ишончнома билан қарздорликни исботловчи ҳужжатларни тақдим этган ҳолда қатнашишлари мумкин. Мурожаат учун тел: +99894-449-70-02.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг ажрими билан қуйидаги корхоналарга нисбатан тўловга қобилиятсизлик (банкротлик) тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Чўтов Мамаюсуп Омонович тайинланган.

Мазкур қарздор корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши **2025 йил 20 май куни** Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида бўлиб ўтади.

Йиғилишда “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 89-моддасида кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалалар кўриб чиқилади.

Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқилиши лозим бўлган масалалар билан танишиш хоҳиши бўлган кредиторлар кузатув жараёнида мурожаат қилишлари мумкин.

Кредиторлар томонидан билдирилган талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой давомида Яккасарой тумани, А.Қаҳҳор 9-тор кўчаси, 1-уйнинг 315-хонасида қабул қилинади.
Тел: (99) 888-00-83.

№	СТИР	Корхона номи	Иқтисодий суднинг (ажрими, ҳал қилув қарори)нинг		Суднинг номи	Рўйхатга олиш вақти	Кредиторлар йиғилишининг вақти
			Санаси	Рақами			
1	302443150	“Enter Machineries service” МЧЖ	11.04.2025й.	4-1001-2516/32485	Тошкент	10.30	11.00
2	305808484	“Lysine agen-cy” МЧЖ	11.04.2025й.	4-1001-2516/32848	Тошкент	11.30	12.00

Жомбой туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 11 апрелдаги 4-1404-2501/2325 ва 4-1404-2501/2326-сонли ажримларига кўра, Жомбой тумани, Қўнғирот МФЙ, Ғазира қишлоғида рўйхатдан ўтган **“G’azira g’isht” МЧЖ** (СТИР 305066903) ва Жомбой тумани, Жомбой ҚФЙ, Эшмоқсоқ чорраҳаси манзилида рўйхатдан ўтган **“Jomboy qurilish materiallari” МЧЖга** (СТИР 302526459) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув таомили қўлланилган. Ушбу жамиятларга муваққат бошқарувчи этиб Халилов Ахтам Абралович тайинланган. Даъволар эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади. Мазкур жамиятлар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 19 май куни соат 12.00 да Жомбой шаҳри, Зебунисо кўчаси, 3-уйда бўлиб ўтиши белгиланди.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг ҳисоботи.
2. Қарздор корхона кредиторлари талаблари реестрининг муҳокомаси.
3. Қарздор корхонага нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат қилиш.
4. Муваққат бошқарувчига ойлик иш ҳақи белгилаш.
5. Бошқа масалалар.

Ушбу йиғилишда кредиторлар ўзининг шахсини тасдиқловчи ҳужжат, унинг вакили ваколатини белгиловчи ишончнома билан қарздорликни исботловчи ҳужжатларни тақдим этган ҳолда қатнашишлари мумкин. Мурожаат учун тел: +99894-449-70-02.

Фарғона туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 апрелдаги 4-1501-2502/8977-сонли ажрими билан Қувасой шаҳрида жойлашган **“Jasur” МЧЖ**га (СТИР 202728534) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Т.А.Искандаров тайинланган. Мазкур иш юзасидан суд мажлиси 2025 йил 15 май куни соат 10.00 да Фарғона шаҳар, Ал-Фарғоний кўчаси, 47-уйда жойлашган суд биносида ўтказилади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 12 майда соат 14.00 да Фарғона шаҳри, С.Аҳмад кўчаси, 48-а уйда ўтказилади.

Риштон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 апрелдаги 4-1505-2502/4174-сонли ажрими билан Риштон туманида жойлашган **“Humo Roshidon Textile” МЧЖга** (СТИР 306929816) нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи этиб Т.А.Искандаров тайинланган. Мазкур иш юзасидан суд мажлиси 2025 йил 5 май куни Риштон тумани, Б.Рошидоний кўчаси, 187-а уйда жойлашган суд биносида ўтказилади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 30 апрелда соат 15.00 да Фарғона шаҳри, С.Аҳмад кўчаси, 48-а уйда ўтказилади. Мурожаат учун тел: (93) 202-00-66.

Жиззах туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 2 апрелдаги 4-1301-2502/3773-сонли ажрими билан **“Jizzax maxsussuvpudrat” масъулияти чекланган жамият** (СТИР 300765069) тўловга қобилиятсиз деб топилган.

Тугатиш бошқарувчиси этиб Хайдаров Миршароф Анварович тайинланган.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан эътиборан 1 (бир) ой муддат ичида қабул қилинади.

Кредиторларнинг 1-сонли йиғилиши 2025 йил 2 май куни соат 11.00 да Жиззах шаҳар солиқ инспекцияси биносида ўтказилади.

Мурожаат учун манзил: Жиззах шаҳри, Ш.Рашидов кўчаси, 63-уй, 5-қават, тел: +99894-194-39-71. Эл.почта: xaydarovmirsharof@gmail.com

---

Шеробод туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 11 апрелдаги 4-1902-2501/3300-сонли ажримига асосан **“Kristal-karvon” МЧЖга** (СТИР 310771033) нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомили сифатида кузатув жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб 2-тоифали суд бошқарувчиси Рузиев Абдумалик Раимович тайинланган.

Шу муносабат билан мазкур жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 19 май куни соат 10.00 да Термиз шаҳар, М.Қошқарий кўчаси, 36-а уйда бўлиб ўтади.

Кредиторларнинг биринчи йиғилишида қуйидаги масалалар кўриб чиқилади:

1. Суд бошқарувчисининг тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомилида қилган ишлари юзасидан берган ҳисоботи.
2. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилини қўллаш юзасидан иқтисодий судга мурожаат этиш тўғрисидаги овоз бериш бюллетени.
3. Суд бошқарувчисига хизмат вазифасини бажарганлик учун иш ҳақи миқдори ва тартибини белгилаш.
4. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилига суд бошқарувчиси номзодини белгилаш.
5. Бошқа масалалар.

Ушбу жамият кредиторларининг талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой давомида қабул қилинади. Мурожаат учун тел: (90) 246-80-03, (97) 845-01-73.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг тегишли қарорларига асосан қуйидаги корхоналар соддалаштирилган тартибда тўловга қобилиятсиз деб топилди. Тугатиш бошқарувчиси этиб Турсунбоев Нодиржон Набижонович тайинланди.

№	МЧЖлар номи	Иш рақами	СТИР рақами	Қарор санаси
1	“Lavanda flowers” МЧЖ	4-1001-2428/11275	307 435 892	09.04.2025 й
2	“Arkan Ixlas” МЧЖ	4-1001-2525/18420	306 801 256	26.03.2025 й

Ушбу жамиятларнинг барча муҳрлари 10 кун ичида тугатиш бошқарувчисига топширилмаса, бекор қилинади. Жамиятлар фаолияти юзасидан инвентаризация ва аудит текшируви ўтказиш учун мустақил аудиторлик ташкилотлари ўртасида тендер эълон қилинади. Тендерда қатнашувчилар ўз таклифлари билан эълон чиққан кундан бошлаб бир ой мобайнида тугатиш бошқарувчисига мурожаат этишлари мумкин.

Банкрот жамиятларга нисбатан талаблар бўйича кредиторлар тугатиш бошқарувчисига эълон чиққан кундан эътиборан бир ой давомида (91) 008-80-05 телефон рақами орқали мурожаат қилишлари мумкин. Банкрот жамиятлар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 16 май куни соат 11.00 да Тошкент шаҳар СБ биносида (Тошкент шаҳар, Абай кўчаси, 4-а уй) бўлиб ўтади.

Йиғилишда шахсини ҳамда қарздорликни асословчи ҳужжат билан қатнашиш талаб этилади.

Кредиторларнинг 2025 йил 15 апрелдаги йиғилишида **“Lider Kosmetik” МЧЖ**га тегишли “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБнинг гаровида бўлган аэрозол ишлаб чиқариш ускунаси, “Central asia wi fi” МЧЖга тегишли “Ўзсаноатқурилишбанк” АТБнинг гаровида бўлган интернет тармоғидан келган маълумотларни қайта текшириш ҳамда инновацион дастурлаш хизматини ривожлантириш бўйича асбоб-ускуналарини баҳолаш учун баҳоловчи ташкилотларни тендер асосида жалб қилиш тўғрисида қарор қабул қилинган. Шуларга асосан жамиятларнинг мол-мулкини баҳолаш учун баҳоловчи ташкилотлар ўз тижорат таклифларини 15 кунлик муддатда тугатиш бошқарувчисига тақдим этиши сўралади. Тугатиш бошқарувчиси почта манзили: Тошкент шаҳри, Чилонзор тумани, 6-мавзе, 2-а уй. Мурожат учун телефон: (94) 433-54-58. Электрон почта: goyipov1982@bk.ru.

Когон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 26 мартдаги ажримига асосан Қоровулбозор туманларидаги **“Mavjuda Munisa 2020” МЧЖ** (СТИР 307272203) тўловга қобилиятсизлик жараёни тугатилиб, соғломлаштирилганини маълум қиламиз. Суд (тугатиш) бошқарувчиси А.Каримов. Алоқа учун телефон: (99) 454-47-07.

Ўзбекистон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 апрелдаги 4-1503-2501/1624-сонли ажримига асосан Бешариқ туманида фаолият юритаётган “Muqimaxon Ergasheva” О/К (СТИР 305122334), 2025 йил 11 апрелдаги 4-1503-2501/1879-сонли ажримига асосан “Beshariq plant protec-tion” МЧЖ (СТИР 308584534), 4-1503-2501/1717-сонли ажримига биноан “Qosimboy-kelajagi” Ф/Х (СТИР 305386774) ва 4-1503-2501/1731-сонли ажримига асосан Фурқат туманида фаолият юритаётган “Фарангиз унумдор замин” МЧЖ (СТИР 305472754), 4-1503-2501/1738-сонли ажримига асосан “Рашидхон Бобурмирзо келажаги” Ф/Хга (СТИР 301832048) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатиш эътироф этилиб, кузатув таомилига доир иш юритиш жорий қилинди. Иқтисодий суднинг шу кунги ажримига кўра, муваққат бошқарувчи этиб С.А.Минаваров тайинланди.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши, “Muqimaxon Ergasheva” О/К, “Beshariq plant protection” МЧЖ ва “Qosimboy-kelajagi” Ф/Хлар учун 2025 йил 14 май куни соат 11.00 да Бешариқ тумани солиқ инспекцияси биносида, “Фарангиз унумдор замини” ФХ, “Рашидхон Бобурмирзо келажаги” Ф/Х лар учун Фурқат тумани солиқ инспекцияси биносида ўтказилади.

Кун тартибидаги масалалар:

1. Муваққат бошқарувчи ҳисоботи.
2. Кредиторлар талаблари реестри.
3. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини жорий этиш.
4. Бошқа масалалар.

Кредиторлар талабларини билдириш учун Марғилон шаҳар, Янги Фарғона кўчаси, 32-а уйга ҳамда (99) 781-55-86 телефон рақами орқали мурожаат қилишлари мумкин.

Тошкент шаҳар, Олмазор туманидаги **“Muxlis baraka olami” масъулияти чекланган жамияти** (СТИР 310195361) Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 мартдаги 4-1001-2529/12249-сонли ҳал қилув қарорига асосан тўловга қобилиятсиз деб топилиб, тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси вазифасига суд бошқарувчиси Мусаев Наврузжон Эшберди ўғли тайинланган.

“Muxlis baraka olami” МЧЖ банкрот деб эътироф этилганлиги сабабли, ушбу корхонага тегишли думалоқ муҳр ва бурчак тамғалари эълон чоп этилган кундан бошлаб беш кун давомида тугатиш бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, бекор қилинади.

Ушбу корхоналар бўйича кредиторлар талаблари эълон чоп этилган кундан бошлаб бир ой давомида Тошкент шаҳри, Шайхонтоҳур тумани, Навоий кўчаси, 30-уй, 4-қаватда қабул қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 6 май куни соат 14.30 да юқорида кўрсатилган манзилда бўлиб ўтади. Тел: (90) 061-00-41.

Kogon tumanlararo iqtisodiy sudining 2025 yil 14 apreldagi 2-2002-2501/125–sonli hal qiluv qaroriga asosan **“Nigina Bektosh Bog‘i” fermer xo‘jaligiga** (STIR 300398690) to‘lovga qobilyatsiz(bankrot)lik ishi qo’zg’atilib, qarzdorlarga nisbatan tugatishga doir ish yuritish boshlangan, sud(tugatish) boshqaruvchisi etib Mahmudov Ahmad O’ktamovich tayinlandi.

“Nigina Bektosh Bog‘i” fermer xo‘jaligining 2025 yil 19 may kuni kreditorlarning yig‘ilishi soat 11.00 Buxoro viloyati, Buxoro shahri, B.Naqshband ko‘chasi, 168-b uy (“Asakabank” AJ “Buxoro” BXM binosi)da bo‘lib o‘tadi.

Yig‘ilishda ko‘rib chiqiladigan masalalar bilan tanishish hamda ishtirokchilarni ro‘yxatga olish 2025 yil 19 may kuni soat 10.30gacha.

Kun tartibi:

1. Sud(tugatish) boshqaruvchi hisoboti.
2. Kreditorlar reestri va xarajatlar smetasini tasdiqlash.
3. Tugatish rejasi va xarajatlar rejasini tasdiqlash.
4. Auditor va baholovchi tashkilotlarni jalb qilish.
5. Boshqa masalalar.

Yuqoridagilarni inobatga olib, Sizdan kreditorlar yig‘ilishiga o‘z ishonchli vakilingizni ishonch xatlari, shaxsini tasdiqlovchi hujjat hamda kreditorlik qarzini tasdiqlovchi barcha hujjatlari (shartnoma, hisob-faktura va solishtirma dalolatnoma) bilan kelishlari shart.

Auditorlik tashkilotlari qarzdor korxonaning moliya-xo’jalik faoliyatini tahlil qilish, hamda baholovchi tashkilotlari qarzdor korxonaning mol-mulklarini baholash uchun sud(tugatish) boshqaruvchi A.Mahmudovga murojaat qilishlari mumkin.

Kreditorlar tugatilayotgan yuridik shaxsga nisbatan o‘z talablarini tugatilayotgan yuridik shaxsni bankrot deb topish haqidagi e’lon chiqarilgan paytdan e’tiboran bir oylik muddatda taqdim etishga haqli.

Murojaat uchun manzili: Buxoro viloyat, Buxoro shahar, I. Karimov ko’chasi, 10-uy.

Sud(tugatish) boshqaruvchi: Mahmudov Ahmad O’ktamovich.

Tel: (99) 419-75-86. e-mail: ahmad_mahmudov@mail.ru.

Наманган туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 7 апрелдаги 4-1601-2504/8478-сонли ажримига асосан Наманган шаҳри, Давлатобод туманидаги **“Nilufar teks group” МЧЖ**га (СТИР 307496304) нисбатан тўловга қобилиятсизлик туғрисида иш юритиш бошланди ва кузатув таомили жорий этилди. Муваққат бошқарувчи этиб 1-тоифали суд бошқарувчиси Толиб Махмудович Хамидов тайинланди.

Суд мажлиси 2025 йил 7 май куни соат 09.20 да Наманган шаҳар, Н.Намангоний кўчаси, 20-а уйда жойлашган суд биносида ўтказилади.

Кредиторлар талаблари эълон берилган санадан бошлаб 1 ойлик муддатда қабул қилинади.

Манзил: Наманган шаҳри, А.Навоий кўчаси, 72-уй, тел: (90) 740-90-25,

e-mail:khamidov.tolib@gmail.com.

Нукус туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 20 мартдаги 4-2301-2503/585-сонли ажримига асосан **“Nukus bricks” MChJ**га (СТИР 305728892) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилган ва иш судда кўриб чиқилгунига қадар, яъни 2025 йил 5 майгача кузатув жорий қилинган. Муваққат бошқарувчи вазифасига суд бошқарувчиси Эгамберганов Хурмат Эгамберганович (Аттестат: АА №000172) тайинланган.

Мазкур қарздор жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 2 май куни соат 11.00 да Нукус шаҳар, Амир Темур кўчаси, 112-а уйда бўлиб ўтади. Кредиторлар вакилларини рўйхатга олиш 2025 йил 2 май соат 10.45 да бошланади. Вакил тегишли ишончнома, шахсини тасдиқловчи ва талабини тасдиқловчи ҳужжатлар билан келиши лозим.

Суд мажлиси 2025 йил 5 май куни соат 10.00 Нукус туманлараро иқтисодий суди биносида бўлади.

Кредиторлар йиғилиши кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчининг кузатув жараёни натижалари бўйича ҳисоботини тасдиқлаш.
2. “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 26-моддасига асосан суд бошқарувчисига тўланадиган қўшимча ҳақни белгилаб тасдиқлаш, тўлаш манбаини тасдиқлаш ҳамда кредиторлар талаблари реестрини тузиш.
3. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
4. Суд бошқарувчиси (тугатиш бошқарувчиси) номзодини тасдиқлаш ва унга иш ҳақи миқдорини белгилаб тасдиқлаш.

Мурожаат учун суд бошқарувчиси Х.Эгамберанов телефон рақами: +99897-791-77-22.

Андижон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 11 апрелдаги 4-1701-2501/1603- ва 4-1701-2501/1605-сонли ажримлари билан Андижон шаҳрида жойлашган “Nurmatov High-Tech Build” МЧЖ (СТИР 309863486) ҳамда “Yeni Kazan Insaat” (СТИР 309019062) МЧЖга нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи этиб II-тоифали суд бошқарувчиси Умаров Шохрух Шарифжонович тайинланди. Мазкур ишлар бўйича суд муҳокамаси 2025 йил 23 май куни соат 11.00 да Андижон туманлараро иқтисодий суди биносида ўтказилади.

Қарздор корхоналар кредиторларининг йиғилиши 2025 йил 20 май куни соат 10.00 ва 11.00 да Андижон шаҳар, А.Фитрат кўчаси, 214-а уйда ўтказилади. Рўйхатга олиш 09.55 да тўхтатилади.

Кун тартибидаги масалалар:

1. Андижон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 14 февралдаги ажримлари.
2. Кузатув жараёни юзасидан муваққат бошқарувчининг ҳисоботлари.
3. Қарздор кредиторлари реестрларини тасдиқлаш.
4. Сохта банкротлик аломатларини аниқлаш юзасидан муваққат бошқарувчининг хулосасини тасдиқлаш.
5. Муваққат бошқарувчига ойлик иш ҳақи белгилаш.
6. Қарздорга нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
7. Тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомили учун суд бошқарувчиси номзодини кўрсатиш.

Йиғилиш қатнашчиларини рўйхатга олиш соат 09.30 да бошланади. Кредиторлар йиғилишида кўриб чиқиладиган масалалар билан йиғилиш куни соат 09.30 дан 10.00 гача танишиш мумкин. Кредиторлар вакиллари ушбу йиғилишда қарздорлик тўғрисидаги маълумот билан асосланган солиштирма далолатнома, кредиторлар реестрига киритиш ҳақида ариза, шахсини тасдиқловчи ҳужжат ва ваколатнома билан қатнашишлари шарт.

Барча ҳақдор ва қарздор хўжалик юритувчи субъектлар солиштирма далолатнома (асословчи ҳужжатлар) билан ваколатнома асосида кредиторлар йиғилишида қатнашишлари сўралади.

Қарздорларга нисбатан талаблар эълон чиққан кундан бошлаб 1 (бир) ой давомида юқорида кўрсатилган манзилда қабул қилинади.

Мурожаат учун телефон: + 99888-975-88-11.

Қоракўл туманлараро иқтисодий судининг 2024 йил 11 апрелдаги 4-2004-2501/2347-сонли ажримига асосан **“Olot neft va gaz qidiruv ekspedisiyasi”** (СТИР 201365727) масъулияти чекланган жамиятига умумий тартибда тўловга қобилиятсизлик иши қўзғатилган ва кузатув жорий этилган. Муваққат бошқарувчи этиб И.А.Касимов тайинланган.

Жамият кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 20 май куни соат 11.00 да Олот шаҳар, Олот кўчаси, 143-уй (Олот НГКЭ биносида)да бўлиб ўтади.

Йиғилиш кун тартиби:

1. Муваққат бошқарувчи ҳисоботи.
2. Кредиторлар реестрини тасдиқлаш.
3. Кредиторлар қўмитасининг миқдорий таркиби, унинг аъзоларини сайлаш.
4. Жамиятда тўловга қобилиятсизлик тартиб-таомилларидан бирини қўллаш муҳокамаси.
5. Бошқа масалалар.

Ишнинг суд муҳокамаси 2025 йил 27 май куни соат 15.00 да Қоракўл туманлараро иқтисодий суди биносида очиқ суд мажлисида бўлиб ўтади.

Кредиторлардан ўз талабларини 1 ой муддатда қуйидаги манзилга юборишлари сўралади: Бухоро шаҳар, Лолазор кўчаси-53. Почта индекси: 200103. Тел: (93) 455-40-17, (90) 415-45-50.

Нукус туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 3 апрелдаги 4-2301-2503/557, 558, 560, 563, 566 ва 564-рақамли ҳал қилув қарорлари билан **“Parwaz paxta terminali”** (СТИР 200366994), **“**City stroy kom” (СТИР 305821525), “Trans stroy” (СТИР 305483488), “Takhiatash greenhouse industrial” (СТИР 306423362), “Prom spesmontajstroy” (СТИР 305645292) МЧЖларга ва “Agro Elbekbay Jaxongir” (СТИР 306137014) ФХга нисбатан банкротликнинг соддалаштирилган таомили жорий қилиниб, тугатиш бошқарувчиси этиб Базарбай Ходжаев тайинланди.

Кредиторлар йиғилиши 2025 йил 20 май куни соат 11.00 да ҚР солиқ бошқармаси биносида ўтказилади. Барча даъволар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой ичида тугатиш бошқарувчиси томонидан ҚР, Хўжайли тумани, Ойбек кўча, рақамсиз уй, Хўжайли тумани солиқ хизмати биносида қабул қилинади.

Мазкур корхонанинг муҳр ва штамплари эълон чиққан кундан бошлаб 10 (ўн) кун ичида тугатиш бошқарувчисига топширилмаса, йўқолган деб ҳисобланиб, бекор қилинади.

Тел: (90) 420-19-55.

Ўртачирчиқ туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 8 апрелдаги 4-1104-2502/658-сонли иш ҳал қилув қарорига кўра, Тошкент вилояти, Ўртачирчиқ тумани, Юнғичқала ҚФЙда рўйхатдан ўтган **“Saidovul” ФХ** банкрот деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш бошланган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Карабаев Отабек Абиджанович тайинланган. Кредиторларнинг талаблари “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонунда белгиланган тартибда ва муддатда қабул қилинади. Алоқа учун телефон: (94) 474-71-74.

Денов туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 20 мартдаги 4-1905-2502/2450-сонли ажримига асосан Шўрчи туманида фаолият олиб борган “Sho’rchi oltin tuproq” (СТИР 302027446) масъулияти чекланган жамиятига тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий этилган. 1-тоифали суд бошқарувчиси М.Хамидов муваққат бошқарувчи этиб тайинланди.

Шу муносабат билан корхона кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 12 май куни соат 11.00 да Шўрчи тумани солиқ инспекцияси биносида ўтказилади.

Кун тартибидаги масалалар:

1. Шўрчи туманидаги “Sho’rchi oltin tuproq” масъулияти чекланган жамиятига нисбатан тўловга қобилиятсизлик таомилларидан бирини қўллаш.
2. Жамиятга суд бошқарувчиси номзодини тайинлаш.
3. Бошқа ҳар хил масалалар.

Қарздорга нисбатан ҳақдор ёки қарздор корхона, ташкилот ва бошқа субъектларнинг вакиллари ваколатнома асосида солиштирма далолатнома билан йиғилишда қатнашишлари сўралади. Даъво ва эътирозлар эълон чиққан кундан бошлаб 1 ой мобайнида қабул қилинади.

Манзил: Сурхондарё вилояти, Шурчи тумани солиқ инспекцияси биноси. Маълумот учун (99) 771-65-60 телефон рақами орқали мурожаат қилиш мумкин.

Бухоро вилояти суди иқтисодий ишлар бўйича судлов ҳайъатининг 2025 йил 14 апрелдаги 4-20-2504/10-сонли ажримига асосан **“Siyovush Group” МЧЖ**га (СТИР 309649348) нисбатан тўловга қобилиятсизлик тўғрисида иш қўзғатилиб, кузатув таомили қўлланилган. Муваққат бошқарувчи лавозимига Ходжаев Файзулло Камолович тайинланди.

Ишни суд мажлисида кўриш 2025 йил 9 июнь куни соат 16.00 да Бухоро вилояти суди (манзил: Бухоро шаҳар, Х.Т.Бухорий кўчаси, 13-уй) биносида бўладиган очиқ суд мажлиси муҳокамасида кўриб чиқиш тайинланган. Шунга кўра, 2025 йил 29 май куни соат 12.00 да Бухоро вилояти, Бухоро шаҳар, С.Айний МФЙ, Когон шоҳкўчаси, 463-уйда жойлашган “Siyovush Group” МЧЖ биносида муваққат бошқарувчининг ҳисоботи, кредиторлар реестрини тасдиқлаш, муваққат бошқарувчига тўланадиган ҳақ миқдори, “Тўловга қобилиятсизлик тўғрисида”ги қонуннинг 89-моддаси ва ушбу қонунда назарда тутилган бошқа масалаларга оид кун тартиблари бўйича кредиторларнинг биринчи йиғилиши ўтказилади.

Йиғилишда кўриб чиқиладиган масалалар билан Бухоро шаҳар, Навоий шоҳкўчаси, 5/1-уйда танишиб чиқишингиз мумкин. Тел: (90) 514-00-01.

Кредиторлар йиғилишига 30 дақиқа қолганда рўйхатга олиш бошланади. Кредиторлар йиғилишида вакиллар ишонч хатлари ва шахсини тасдиқловчи ҳужжатларни тақдим этган кейин иштирок этадилар.

Кредиторлар қарздорга бўлган талабларини ёзма шаклда кредиторлик қарзини тасдиқловчи барча ҳужжатларни илова қилган ҳолда эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида муваққат бошқарувчига тақдим қилишлари мумкин.

Тошкент туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 4 апрелдаги **“Xayrobod dunyosi” ХК** (СТИР 308608913) 4-1001-2503/22458-сонли, “**Vostok EXIM” МЧЖ** (СТИР 205921729) 4-1001-2503/22218-сонли ҳал қилув қарорлари билан соддалаштирилган тартибда тўловга қобилиятсиз деб топилган ва тугатишга доир иш юритиш бошланган.

Тугатиш бошқарувчиси этиб Норкабилов Ахмад Тилавович тайинланган.

Ушбу хўжалик юритувчи субъектлар кредиторларининг биринчи йиғилиши 2025 йил 14 май куни соат 11.00 да Учтепа тумани, Заргарлик кўчаси, 48-а уйда бўлиб ўтиши белгиланган.

Мазкур хўжалик юритувчи субъектлар таъсис ҳужжатларининг асли, штамп ва думалоқ муҳрлари эълон чоп этилган кундан бошлаб ўн кун ичида тугатиш бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, йўқолган деб топилиб, бекор қилинган ҳисобланади.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида қабул қилинади. Маълумот олиш учун +99897-750-98-51 телеграмм/телефон рақамига ҳамда ant12041971@xmail.ru электрон манзилига мурожаат қилиш мумкин.

Кредиторлар диққатига !

Учқўрғон туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 7 апрелдаги 4-1602-2501/2-сонли ажримига асосан **“Yangi avlod Abdullox” МЧЖга** (СТИР 306120684**)** нисбатан тўловга қобилиятсизликнинг кузатув таомили жорий этилган. Суднинг тегишли ажрими билан муваққат бошқарувчи этиб 2-тоифали Ж.Санжаров тайинланган. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 19 май куни соат 14.00 да Наманган шаҳар, А.Навоий кўчаси, 72-уйда ўтказилади. Қарздорга нисбатан барча даъволар эълон чиққан кундан бошлаб 30 кун давомида тугатиш бошқарувчиси томонидан юқоридаги манзилда қабул қилинади.

Йиғилиш кун тартиби: муваққат бошқарувчининг ҳисоботи, тўловга қобилиятсизликнинг кейинги таомилини белгилаш, муваққат бошқарувчига иш ҳақи тайинлаш, қарздорнинг кредиторлар реестрини тасдиқлаш, бошқа масалалар.

Ушбу йиғилишда кредиторлар ўзининг ҳақдорлигини тасдиқловчи ҳужжат, вакиллар шахсини ҳамда ваколатини тасдиқловчи ишончнома билан қатнашиши шарт. Тугатиш бошқарувчиси манзили: Наманган шаҳар, А.Навоий кўчаси, 72-уй, тел: (91) 368-10-06.

Жиззах туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 10 апрелдаги 4-1301-2501/3763 ҳал қилув қарорига асосан Жиззах шаҳридаги юридик шахс **“Ziraxol-Diyora” МЧЖ** (СТИР 309517986) тўловга қобилиятсизликнинг соддалаштирилган таомили бўйича тўловга қобилиятсиз деб эътироф этилиб, тугатишга доир иш очилган. Тугатиш бошқарувчиси этиб Аралов Қодир Мамадиёрович тайинланган.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан бошлаб бир ой муддат ичида қабул қилинади. Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 20 майда соат 11.00 да (индекс: 130100) Жиззах шаҳри, Заргарлик маҳалласи, Талабалар кўчаси, ТРИО офис биносида ўтказилади.

Мурожаат учун тел: +99899-592-27-66. Ушбу хўжалик юритувчи субъектга тегишли бўлган думалоқ муҳр ва бурчакли штамплар 10 (ўн) кун ичида тугатиш (суд) бошқарувчисига топширилмаган тақдирда, бекор қилинган ҳисобланади.

Дўстлик туманлараро иқтисодий судининг 2025 йил 20 мартдаги 4-1304-2403/5556-сонли ажрими билан **“Омад-5” фермер хўжалиги** (СТИР 300765069) тўловга қобилиятсиз деб топилган.

Тугатиш бошқарувчиси этиб Хайдаров Миршароф Анварович тайинланган.

Кредиторлар талаблари эълон чиққан кундан эътиборан 1 (бир) ой муддат ичида қабул қилинади.

Кредиторларнинг биринчи йиғилиши 2025 йил 20 апрель куни соат 11.00 да Жиззах шаҳар солиқ инспекцияси биносида ўтказилади.

Мурожаат учун манзил: Жиззах шаҳри, Ш.Рашидов кўчаси, 63-уй, 5-қават.

Тел: +99894-194-39-71. Эл.почта: xaydarovmirsharof@gmail.com.

КОНСОЛИДИРОВАННЫЙ ОТЧЕТ О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ ЧАКБ “ОРИЕНТ ФИНАНС” за год, закончившийся 31 декабря 2024 года

(млн.сум)

АКТИВЫ	2024	2023
Денежные средства и их эквиваленты	3 326 187	3 659 675
Средства в других банках	101 635	495 580
Кредиты и авансы клиентам	12 707 672	8 467 685
Основные средства и нематериальные активы	454 018	347 262
Инвестиционная недвижимость	13 778	-
Долговые ценные бумаги по амортизированной стоимости	9 826	-
Финансовые активы, учитываемые по справедливой стоимости через прочий совокупный доход	29 456	18 676
Предоплата текущих обязательств по налогу на прибыль	12 736	7 532
Прочие активы	70 318	65 783
ИТОГО АКТИВЫ	**16 725 625**	**13 062 193**
ОБЯЗАТЕЛЬСТВА		
Средства других банков	844 492	1 287 921
Средства клиентов	11 214 693	9 019 155
Прочие заемные средства	1 385 655	393 954
Отложенное налоговое обязательство	22 122	9 513
Прочие обязательства	68 972	31 342
ИТОГО ОБЯЗАТЕЛЬСТВА	**13 535 933**	**10 741 885**
КАПИТАЛ		
Акционерный капитал	1 470 464	1 470 464
Эмиссионный доход	2 105	2 105
Нераспределенная прибыль	1 716 677	837 141
Резерв переоценки финансовых активов, учитываемых по справедливой стоимости через прочий совокупный доход (ССЧПСД)	-	10 598
Итого капитал причитающийся акционерам банка	3 189 247	2 320 308
Неконтролирующая доля участия	445	-
ИТОГО КАПИТАЛ	**3 189 692**	**2 320 308**
ИТОГО ОБЯЗАТЕЛЬСТВА И КАПИТАЛ	**16 725 625**	**13 062 193**

Достоверность финансовой отчетности подтверждена аудиторской организацией “ Ernst &Young” (Сертификат на право проведения аудиторских проверок банков Центрального Банка Республики Узбекистан № 11 от 22 июля 2019 г.) и подготовлена в соответствии с Международными стандартами финансовой отчетности. Информация о приведенных выше данных содержится в аудиторском заключении о достоверности отчетности банка по состоянию на 31 декабря 2024 года.

КОНСОЛИДИРОВАННЫЙ ОТЧЕТ О ПРИБЫЛЯХ И УБЫТКАХ И ПРОЧЕМ СОВОКУПНОМ ДОХОДЕ ЧАКБ “ОРИЕНТ ФИНАНС” за год, закончившийся 31 декабря 2024 года

(млн.сум)

	2024	2023
Процентные доходы, рассчитанный с использованием эффективной процентной ставки	1 623 311	1 134 046
Прочие процентные доходы	50 205	11 829
Процентные расходы	(554 380)	(310 067)
Чистый процентный доход до вычета резерва на ожидаемые кредитные потери по кредитам клиентам	**1 119 136**	**835 808**
Восстановление/(убыток от обесценения) по кредитам и авансам клиентам	34 118	(3 045)
Чистые процентные доходы после создания резерва под обесценение кредитов	**1 153 255**	**832 763**
Комиссионные доходы	442 415	311 985
Комиссионные расходы	(200 670)	(124 902)
